

I VARIANT

1. Exolot asbobi yordamida nima o'lchanadi?

- A) Zilzila kuchi B) Shamol tezligi
D) Suv havzalarining chuqurligi E) Havoning nisbiy namligi

2. Quyidagi tasvirda yakka daraxtning azimuti necha darajaga teng?



- A) 90 ° B) 45 ° D) 180 ° E) 225 °


3. Afrikada yomg'irli o'rmonlar nima deb ataladi?

- A) Pampa B) Terayalar D) Gileya E) Savanna

4. O'zbekistonning eng past nuqtasi – Mingbuloq botig'i (-12 m) qaysi tabiiy geografik okrug hududida joylashgan?

Javob: Qizilqum okrugida

5. Quyidagi xaritada 2 va 3 raqamlari bilan qaysi viloyatlar tasvirlangan va chegaradosh viloyat(davlat)larini nomini yozing.



Javob: 2 – Andijon viloyati; 3 – Buxoro viloyati

6. Muruntov koni negizida qaysi shahar vujudga kelgan?

Javob: **Zarafshon shahri, 1972-yilda**

7. Xitoy, Hindiston, Braziliya va Meksika davlatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning qaysi guruhini tashkil etadi?


Javob: **Tayanch rivojlanayotgan davlatlar**

8. Kamerun davlatining maydoni 475,4 ming km.kv, aholisining umumiy soni 25,6 mln kishini tashkil etsa, ushbu davlatning aholi zichligini aniqlang.

Javob: **53.8 kishi**

Ishlanishi: $25\,600\,000 : 475\,400 = 53.8$ (54 kishi)

9. Quyidagi xaritada belgilangan davlatlarga xos xususiyatlarni moslashtiring.




- a) Mis rudasi va misni katta miqdorda eksport qiladi;
- b) Jahon bozoriga asosan fosforit, sitrus mevalar taklif qiladi;
- c) Yoqilg'i xomashyosining asosiy eksportyorlardan biri;
- d) "Sinopec Group" transmilliy korporatsiyaning bosh idorasi joylashgan;
- e) Avtomobil eksporti bo'yicha peshqadam;
- f) Kofeni jahon bozoriga katta miqdorida olib kiradi;
- g) Transport, axborot-kommunikatsion xizmatlar eksporti bilan alohida ajralib turadi;

Javob:

№	Davlat nomi	Xususiyati (harfi)
1	Marokash	b
2	AQSH	g
3	Uganda	f
4	Xitoy	d
5	Peru	a
6	Yaponiya	e
7	Liviya	c

10. Quyidagi diagrammalarda dunyo va turli qit'alar aholisining yosh tarkibi tasvirlangan. Bu diagrammalar yordamida qaysi qit'a aholisida bolalarning ulushi eng yuqori, qaysi birida esa keksalarning ulushi eng yuqori ekanligini aniqlang. Bu ikki qit'ada tug'ilish darajasi va umr ko'rish davomiyligining farqlanishi haqida xulosa qiling.



Javob: Bolalar salmog'i eng yuqorisi --- Afrika
Keksalar salmog'i eng yuqorisi --- Yevropa

Afrikada tug'ulish yuqori, aholing umr ko'rish davomiyligi past. Shunday ekan keksalar salmog'i kam.

Yevropada tug'ulish kam, aholing umr ko'rish davomiyligi yuqori. Shunday ekan keksalar salmog'i ko'p.

II VARIANT


1. Atmosfera qatlamlaridan qaysi birining yuqori chegarasi 40-50 km balandlikda o'tadi?

- A) Troposfera **B) Stratosfera** D) Mezosfera E) Termosfera

(lekin darsliklarda 50-55 km gacha deb berilgan).

Troposferadan yuqorida stratosfera (50 — 55 km gacha), mezosfera (80 — 85 km gacha), termosfera (1 000 km gacha), ekzosfera (2 000 km gacha) joylashgan

2. Quyidagi tasvirda uyning azimuti necha darajaga teng?



- A) 90 ° B) 45 ° D) 180 ° **E) 315 °**


3. Janubiy Amerikada dashtlar nima deb ataladi?

- A) Pampa** B) Terayalar D) Gileya E) Savanna

4. Chatqol va Qurama tog'laridan suv to'plovchi soylarning qo'shilishidan Oqtoshsoy (Chovlisoy) nomi bilan boshlanadigan va 236 km masofada oqib, Sirdaryoga quyiladigan daryo qaysi?

Javob: **Ohangaron**

5. Quyidagi xaritada 4 va 5 raqamlari bilan qaysi viloyatlar tasvirlangan va chegaradosh viloyat(davlat)larini nomini yozing.



Javob: **4 - Farg'ona 5 - Jizzax**

Javoblarni tayyorladi: Sarbolayev Umidjon Ravshanbekovich.

Telegram manzili: Umidjon_03_12 (EVEREST 8848)

6. Suv yo'lida yuk tashish haqi nima deyiladi?

Javob: **Fraxt**

7. Xizmat ko'rsatish sohalari jahon iqtisodiyoti tarkibidagi qaysi sektorni hosil qiladi?

Javob: **Uchlamchi sektor**

8. Koreya Respublikasining 1.01.2024-yil holatiga aholi sonini hisoblab chiqing:

Davlat	Aholi soni (mln kishi, 1.01.2023- y.)	Tug'ilganlar soni (ming kishi, 2023- y.)	O'lganlar soni (ming kishi, 2023- y.)	Ko'chib kelganlar soni (ming kishi, 2023- y.)	Ko'chib ketganlar soni (2023- y.)
Koreya Respublikasi	52,0	476,3	287,5	86,9	24,0

Javob: **52 251 700 kishi**

$476.3 - 287.5 + 86.9 - 24 = 251.7$ ming kishiga ko'paygan

$52\,000\,000 + 251\,700 = 52\,251\,700$

9. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Davlat nomi	Poytaxti	Maydoni, ming km.kv.	Aholi soni, mln kishi	Aholi zichligi
Eron	Tehron	1648	81,6	49.5
Afg'oniston	Qobul	652,8	36,5	55.9
Pokiston	Islomobod	803,9	200,6	249.5


Yechim:

Tehron: $81\,600\,000 : 1\,648\,000 = 49.5$ kishi;

Qobul: $36\,500\,000 : 652\,800 = 55.9$ kishi

Islomobod: $200\,600\,000 : 803\,900 = 249.5$ kishi

10. Quyidagi iqlim diagrammalari Janubiy Amerika materigining qaysi iqlim mintaqalariga mos keladi?




Javob: 1 - mo'tadil
2 - ekvatorial iqlim mintaqasi
3 - tropik iqlim mintaqasi

III variant

1. Yer yuzasidagi nisbiy balandliklar qaysi asbob yordamida o'lchanadi?

A) Anemometr B) Ruletka D) Barometr E) Nivelir

2. Quyidagi tasvirda qaysi shamol turi tasvirlangan?



A) Musson B) Briz D) G'arbiy shamollar E) Passat

3. Afrikadagi Hind okeaniga quyiladigan daryolardan eng yirigi qaysi?

A) Limpopo B) Djubba D) Zambezi E) Tana

4. Morguzar va Nurota tizmalari qaysi dara bilan ajralib turadi?

Javob: Sangzor daryosining "Amir Temur darvozasi" darasi bilan.

5. Foydali qazilmalar nomlarini ularning guruhlar bilan moslashtiring.

1. Og'ir metallar. 2. Yengil metallar. 3. Qimmatbaho metallar. 4. Qiyin eruvchi metallar.
5. Nodir metallar.

a) volfram, molibden; b) uran, germaniy; d) mis, rux; e) aluminiy, titan; f) kumush, platina

Asosiy guruhlar			Boshqa guruhlar	
Og'ir metallar	Yengil metallar	Qimmatbaho metallar	Qiyin eruvchi metallar	Nodir metallar

Javob:

1. Og'ir metallar – d) mis , rux
2. Yengil metallar – e) alyuminiy, titan
3. Qimmatbaho metallar – f) kumush, platina
4. Qiyin eruvchi metallar – a) volfram, molibden
5. Nodir metallar - b) uran, germaniy

6. Zarafshon iqtisodiy rayonining qaysi shahrida bir nechta gilam fabrikalari, tabak-ferment va shifer zavodlari faoliyat yuritadi?

Javob: **Urgut shahrida**

7. Afrika davlatlari orasida aholi soni bo'yicha 1- va 2-o'rinda turadigan davlatlar nomini yozing.

Javob: **Nigeriya va Efiopiya**

8. Nikaragua davlatining maydoni 129,5 ming km.kv, aholisining umumiy soni 6,3 mln kishini tashkil etsa, ushbu davlatning aholi zichligini aniqlang.

Javob: **48.6 kishi**

Ishlanishi: $6\,300\,000:129\,500=48.6$

9. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Aholi soni, mln kishi	Shahar aholisi soni, mln kishi	Urbanizatsiya darajasi, %	Qishloq aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi ulushi, %
140	84 mln	60%	56	40%

Ishlanishi: $140 - 56 = 84$ mln – shahar aholisi


$140 \text{-----} 100\%$

$84 \text{-----} X \%$

$X = 84 \times 100 : 140 = 60\%$ - urbanizatsiya

$100 - 60 = 40\%$ - qishloq aholisi ulushi.

10. Ushbu diagramma yordamida Farg'ona, Janubiy va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari sanoatining 2 tadan yetakchi tarmoqlarini aniqlashtiring.



Javob:

Toshkent iqtisodiy rayoni – qora metallurgiya, oziq-ovqat sanoati.

Farg'ona iqtisodiy rayoni – mashinasozlik, yengil sanoat.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni – elektr energetika, qurilish materiallari sanoati.

Zarafshon iqtisodiy rayoni – qurilish materiallari, yoqilg'i sanoati.

Janubiy iqtisodiy rayoni – yoqilg'i, yengil sanoat.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni – kimyo, yoqilg'i sanoati.

IV VARIANT

1. Quyosh 22-iyun kuni qaysi parallelda tik tepaga keladi?

A) Ekvator B) Janubiy tropik **D) Shimoliy tropik** E) Shimoliy qutbiy doira

2. Esayotgan shamol yo'nalishi qanday asbob yordamida aniqlanadi?

A) fluger B) anemometr D) yog'in o'lchagich E) barometr

3. Ushbu orollardan qaysi biri Melaneziya tarkibiga kirmaydi?

A) Yangi Kaledoniya B) Yangi Gvineya D) Fidji **E) Gavayi orollari** (Polineziya)

4. Parsanko'l, Moxonko'l, Qoraqir kabi ko'llar qaysi tabiiy geografik okrug hududida joylashgan?

Javob: **Quy Zarafshon okrugida**

5. Ammofos mineral o'g'iti Toshkent viloyatidagi qaysi shaharda ishlab chiqariladi?

Javob: **Olmaliq shahrida**

6. Mustaqillik yillarida respublikamizning qaysi shaharlarida duradgorlik buyumlari zavodi ishga tushdi?

Javob: **Toshkent va Asaka shaharlarida**

7. Seykan tunneli qaysi ikkita orolni bog'laydi?

Javob: Yaponiya davlatidagi **Xonsyu va Xokkaydo orollarini** bog'laydi (uzunligi 54 km).

8. Koreya Respublikasining maydoni 100,2 ming km.kv, aholisining umumiy soni 51,8 mln kishini tashkil etsa, ushbu davlatning aholi zichligini aniqlang.

Javob: **517 kishi.**

Ishlanishi: $51\,800\,000 : 100\,200 = 516.9$ kishi.

9. Samolyot Pekindan (VIII soat mintaqasi) mahalliy vaqt bilan soat 11:00 da Istanbulga (III soat mintaqasi) tomon uchib ketdi. Samolyotning uchish vaqti 8 soat 36 daqiqaga teng bo'lsa, u Istanbulda mahalliy vaqt bilan soat nechada qo'nadi?


Javob: **14:36**

Ishlanishi: $8-3=5$ soat (ikkala shahar orasidagi soat farqi);

$11-5=6$ (Istanbuldagi vaqt);

$6+8^{36}=14^{36}$ Javob 14:36

10. Ushbu xaritadan foydalanib aholi zichligi 10 kishi/km² dan past bo'lgan davlatlar orasidan 3 ta hududi, asosan, cho'llardan iborat bo'lgan va 3 ta sovuq iqlimli davlatni aniqlang.



Javob: Hududi cho'llardan iborat bo'lgan davlatlar – **Avstraliya, Jazoir, Namibiya.**

Sovuq iqlimli davlatlar – **Rossiya, Kanada, Islandiya**

V VARIANT.

1. Aneroid qaysi o'lchash asbobining turi hisoblanadi?

- A) Termometr **B) Barometr** D) Gigrometr E) Anemometr

Havo bosimi barometr asbobi bilan o'lchanadi («baros» - og'irlik, bosim, «metreo» - o'lchash). Barometr ikki xil bo'ladi: simobli barometr va metall barometr - aneroid.

2. Musson shamollari qaysi hududlarda kuchli bo'ladi?

- A) G'arbiy va Janubiy Yevropa B) Shimoliy va G'arbiy Afrika
D) Sharqiy va Janubiy Osiyo E) Shimoliy va Sharqiy Yevropa

3. I, II, III raqamlarni a) b) c) javoblar bilan moslashtiring

- I. Abissal.
II. Materik sayozligi.
III. Batial.
a) 200 metr chuqurlikkacha;
b) 3000 metr chuqurgacha;
c) 6000 metr chuqurgacha

- A) I-c; II-a; III-b B) I-c; II-a; III-b D) I-c; II-a; III-b E) I-c; II-a; III-b**

(barcha variantlar bir xil, shuning uchun hammasi to'g'ri)

4. Borsakelmas va Asaka-Ovdan botiqlari qaysi tabiiy geografik okrug hududida joylashgan?

Javob: **Ustyurt tabiiy geografik okrugida**

5. Samarqand viloyatida respublika aholisining 12 % i yashaydi. Bu viloyat respublikada yetishtirilgan donli ekinlarning 18 % ini bergan. Ixtisoslashuv koefitsientini aniqlang.

Javob: **1.5 %** (ixtisoslashgan)

Ishlanishi: $K = M/A$

$K = M/A = 18:12 = 1.5;$

6. Quyidagi ta'riflar qaysi shaharga to'g'ri keladi?

- 1) Shahar kuchli shamol esadigan hududda joylashgan;
- 2) Viloyatning janubidagi shahar.
- 3) Shaharda metallurgiya zavodi bor.
- 4) Farhod GES qurilishi jarayonida vujudga kelgan.

Javob: **Bekobod shahri.**

7. 2 raqami bilan Yevropaning qaysi subregioni tasvirlangan?



Javob: **G'arbiy Yevropa**

8. Mamlakat eksportining yalpi yillik hajmi 165 mlrd AQSH dollariga, importining yalpi yillik hajmi esa 181 mlrd AQSH dollariga teng. Ushbu mamlakatning tashqi savdo aylanmasi va balansini hisoblang.

Javob: tashqi savdo aylanmasi **346 mlrd AQSH dollar.**
tashqi savdo balansini **-16 mlrd AQSH dollorga teng.**

a) Tashqi savdo aylanmasida eksport va import hajmi qo'shiladi
 $165 + 181 = 346$ mlrd AQSH dollar.


b) Tashqi savdo balansida eksport va import orasidagi farq topiladi
 $165 - 181 = -16$ mlrd AQSH dollar

9. Havo harorati tog' cho'qqisida -10°C , tog' etagida esa $+23^{\circ}\text{C}$ ga teng. Tog' cho'qqisining mutlaq balandligi 5835 metr bo'lsa, tog' etagining mutlaq balandligini aniqlang.

Javob: **335 m**

Ishlanishi: $10 + 23 = 33^{\circ}\text{C}$ (tog' cho'qqisi bilan etagidagi harorat farqi);
 $33 : 6 \times 1000 = 5500$ m (tog'ning nisbiy balandligi);
 $5835 - 5500 = 335$ m (tog' etagining mutlaq balandligi)
Izox: 1000 m yuqoriga ko'tarilganda havo harorati -6°C ga pasayib boradi.

10. Quydagi diagrammalarda jahon aholisining qit'alar bo'yicha 2020- va 2050-yillar (prognoz) holatiga ko'ra taqsimlanishi keltirilgan. Bu diagrammalarni o'zaro taqqoslab, 2050-yilga kelib qaysi qit'alarining jahon aholisi tarkibidagi ulushi ko'payishi, qaysilarniki esa kamayishi kutilayotganini aniqlang. Tegishli o'zgarishlarga qanday omil asosiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaysiz?



Javob: Ko'payishi – Afrika, Avstraliya (tug'ulishning ko'pligi)
Kamayish – Yevropa, Osiyo, Amerika (tug'ulishning kamayishi)